

**TALABALARDA VATANPARVARLIKNI ARTPEDAGOGIKA VOSITASIDA
RIVOJLANTIRISH MAZMUNI****Madaliyev Raxmiddin Ismoilovich***Farg'ona davlat universiteti, harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi***Jamshidjonov Shamshodbek Jamshidjon o'g'li****Dusmatov Firdavs Abduvaxxob o'g'li****Tursunboyev Azizbek Muxammadsoli o'g'li***FarDU Harbiy ta'lim fakul'teti 1-bosqich talabalari*

Annotatsiya: *Maqolada oliy ta'lim tizimida talaba-yoshlarning vatanparvarlik tuyg'ularini artpedagogika vositalari orqali rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari va amaliy mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqot ishida zamonaviy globallashtirish sharoitida yoshlarda milliy o'zlikni anglash, fuqarolik pozitsiyasi va Vatanga sadoqat hissini shakllantirish masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida tahlil qilingan.*

Maqolada artpedagogikaning didaktik imkoniyatlarini – tasviriy san'at, musiqiy pedagogika, teatr pedagogikasi va adabiy ijod kabi turlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalash orqali talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning samarali yo'llari yoritilgan. Tadqiqotda artpedagogik vositalar yordamida yoshlarda hissiy intellekt, ijodiy tafakkur, muloqot qobiliyatlari va milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat tuyg'usini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari belgilanib, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning mazmuni va tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan. San'at va pedagogikani sintez qiluvchi artpedagogik yondashuv talabalarda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar va shaxsiy tajriba orqali vatanparvarlik fazilatlarini singdirishning innovatsion texnologiyasi sifatida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar : *pedagogik model, vatanparvarlik, madaniyat, talabalar tarbiyasi, milliy an'analar, ma'naviy tarbiya, musiqa san'ati, fuqarolik, mazmun komponenti, axloqiy qadriyatlar, siyosiy mas'uliyat, globallashtirish jarayoni.*

KIRISH

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining ikkinchi bobida "oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish" masalasi muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Mustaqillikning mustahkam zamini nima o'zi? Avvalo, vatanparvarlik, bilim, ma'naviyat. Jamiyatimizda ana shunday vatanparvarlik ruhini, shukronalik ruhini kuchaytirishimiz kerak". Mazkur fikrlar pedagogika sohasi vakillari zimmasiga vatanparvarlik fenomeni bilan bog'liq yuksak vazifalarni amalga oshirishni taqazo etadi. Jumladan, talaba-yoshlarimizning kundalik

hayoti, yurish-turishi, ta'lim-tarbiyasi va umuman hayotining oliy maqsadini to'g'ri belgilash ko'nikmalarini rivojlantirishni talab etadi.

Vatanparvarlik jasorati haqida fikr yuritganda, o'z aql-idroki bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Mansur as-Samarqandiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abul Fazl an-Nasafiy, Mahmud az-Zamaxshariy, Abdul Qohir Jurjoni, Faxriddin ar-Roziy, Murzo Ulug'bek singari o'nlab qomusiy mutafakkirlarni yodga olishimiz zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Har sohada yurtimiz erishayotgan muvaffaqiyatlaridan quvonish, Vatan taqdiri uchun qayg'urish, millati bilan g'ururlanish, ona tuprog'i, qadimiy va navquron obidalar, madaniyati va san'ati, sportdagi yutuqlarini, moddiy va ma'naviy boyliklarini, o'lmas qadriyatlarini ko'z qorachig'idek asrash va kelgusi avlodga avaylab yetkazish – bularning barchasi vatanparvarlikdir. Talaba-yoshlarda vatanparvarlikni rivojlantirish, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim, kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb ahamiyatga ega vazifalardan biri sifatida tahlil etilgan.

Bugun oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlarida o'z millatiga sodiqlik, o'z taqdiri uchun qayg'urish va daxldorlik hissini singdirishga, qalblarida yot g'oya va salbiy qarashlarning ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni san'at va ta'lim-tarbiya uyg'unligi asosida rivojlantirishga doir chora-tadbirlar yetarli darajada tizimli tashkil etilmagan va tashkil etilgan bu boradagi tadbirlarning samaradorligini monitoringi yetarlicha olib borilmagan. Vatanparvarlikka yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy tadbirlarning ma'lum bir mexanizmi yo'lga qo'yilmaganligi ham ko'zga tashlandi.

Shu bilan birga, milliy qadriyatlar, xalqlarning madaniyati va o'zligiga bo'lgan tahdidlar, yot g'oyalarni singdirishga bo'layotgan urinishlar kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlari jadal rivojlanayotgan sharoitda yoshlar eng zaif qatlamga aylanib qolmasligini ta'minlash pedagoglar oldiga keng miqyosdagi tizimli-tarbiyaviy-profilaktik vazifalarni qo'ymoqda.

Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, har tomonlama raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, talabalarda yuksak vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning didaktik parametrlarini aniqlashtirish muhim vazifa sifatida belgilandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Artpedagogika vositasida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish o'ziga xos badiiy-uslubiy yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Artpedagogika – bu san'at va pedagogikani birlashtirgan ta'lim yo'nalishi bo'lib, talabalar ongida ijobiy his-tuyg'ularni, milliy o'zlikni anglashni, tarix va madaniyatga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi. Artpedagogika orqali vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat nazariy bilimlarni o'rganish bilan, balki amaliy san'at turlari bilan bog'liq faoliyat orqali ham rivojlantiriladi.

Artpedagogikaning eng muhim bo'lgan ahamiyatli jihati talabalarda didaktik jarayonda ta'lim va san'at uyg'unligi asosida vatanparvarlikni rivojlantirishga xizmat qilishdir. Mazkur faoliyat mazmunida sifat jihatdan yangi bilimlarni o'zlashtirish maqsadida xilma-xil tur va shakldagi artpedagogik ma'lumotlarni analitik-sintetik qayta ishlash jarayonida mavjud bilim, ko'nikma va shaxsiy tajribani qo'llay olish qobiliyati tushuniladi.

Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish qator metodik shart-sharoitlarni talab etadi: talabalarga vatanparvarlikka oid ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat texnologiyasini o'rgatish; o'quv

jarayonida talabalarning ma'lumotlarni idrok etishda artpedagogikaga oid individual xususiyatlarni hisobga olish, tahlil etish (tabaqalashgan kognitiv uslub) va umumlashtirish (integral kognitiv uslub)ni talab etuvchi tabaqalashtirilgan amaliy topshiriqlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish; o'quv jarayonida san'at va badiiy-ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan amaliy, dasturiy vositalardan foydalanish.

Artpedagogik vositalar yordamida, ya'ni sa'nat namunalaridan foydalangan holda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonida talabalarning ichki imkoniyatlarini ochishga, hissiy intellektni, muloqot qobiliyatlarini va tasavvurlarini rivojlantirishga yordam beradi va quyidagi xususiyatlar shakllantiriladi:

- Tasviriy san'at: Chizish, rasm va grafika bizga hissiyot va kayfiyatni rang, shakl va chiziq orqali ifodalash imkonini beradi.

- Musiqiy pedagogika: musiqa tinglash va musiqiy asboblarni chalish, eshitish, xotira va hissiy idrokni rivojlantirishga yordam beradi.

- Teatr pedagogikasi: o'yinlar, eskizlar va drammatizatsiya muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi, talabalarni rol o'yinlar orqali boshqalarni tushunishga o'rgatadi va nostandart vaziyatlarda ijodkorlikni ko'rsatadi.

- Adabiy ijod: insho yozish va she'r o'qish tasavvurni va fikrlarni shakllantirish qobiliyatini rivojlantiradi.

Talabalarni badiiy ijod vositasida ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish orqali murabbiylar, pedagoglar darslarni (mashg'ulotlarni) diversifikatsiya qilishlari va talabalarni o'quv jarayoniga jalb qilishlari mumkin.

Shu nuqtai nazardan badiiy madaniyatni rivojlantirish uni qabul qilishning empirik va ratsional jihatlarini borligini taqozo qiladi hamda badiiy ijodning zaruriy qismi hisoblanadi. Ya'ni bir tomondan badiiy madaniyat ehtiyoj va uning individualligi, ikkinchi tomondan obyekt, maqsadlari umumiylik badiiy madaniyatning vosita ratsionalligi konstruktivligini belgilaydi. Badiiy madaniyat tajribasi voqelikni badiiy obrazli aks ettirish tufayli amalga oshishi mumkin. Badiiy madaniyatning jamiyat ma'naviyati bilan aloqadorligi, san'at va axloqning o'zaro munosabatida yaqqol namoyon bo'ldi. San'at-badiiy madaniyatning o'zagi bo'lsa, axloq –san'atning funksional mohiyatini ifodalaydi.

Dastlabki paytlarda "axloqsiz" yondashuv san'atiga Yevropa burjua iste'molchiligi ruhiga qarshi norozilik tarzida, ya'ni san'atni hukmron doiralari axloqi va odobi qoidalariga bo'ysundirishga qarshi kurashish ruhida vujudga keldi.

Uchinchi yondashuv san'atda axloqiylik bilan axloqsizlikni birlashtirish uslubi. Bu uslubni ilk bor Arastu nazariy jihatdan asoslagan. Keyinchalik u inqilobiy-demokratik oqim tarzida qaror topdi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni tizimli va samarali amalga oshirish, avvalo, har bir talaba-yoshning ongida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi, erkinligi va xalqimiz tomonidan ko'zlangan yuksak ezgu maqsadlarga erishish yo'lida shaxsiy mas'uliyat va fuqarolik burchini anglashni shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayon yoshlarda Vatanga sadoqat, fidoyilik, bunyodkorlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini chuqur singdirishga qaratilgan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ajralmas qismidir. Xususan, mustaqil davlat fuqarosi sifatida o'z Vatani taqdiriga befarq bo'lmagan, uni himoya qilish, ravnaqiga hissa qo'shish va

o'z salohiyatini mamlakat kelajagiga xizmat qildirishni ustuvor vazifa deb biladigan shaxsni shakllantirish bugungi ta'lim-tarbiya strategiyasining markaziy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Vatan himoyasi tushunchasi esa zamonaviy sharoitda faqat harbiy xizmat bilan chegaralanmay, balki har bir fuqaroning o'z kasbiy faoliyati, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas'uliyati orqali Vatan ravnaqiga qo'shgan hissasi sifatida talqin etilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar va tarbiyaviy faoliyatlar – talabalarda nafaqat nazariy bilimlar, balki yuksak ijtimoiy ong, fuqarolik pozitsiyasi va Vatan manfaatlarini hamisha ustuvor qo'yish kabi yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bunday maqsadga yo'naltirilgan vatanparvarlik tarbiyasi har bir yosh uchun ruhiy boylik, ichki kuch-quvvat manbai bo'lib, ularni jamiyat hayotida faol, tashabbuskor, mas'uliyatli va ongli fuqarolar sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Zero, yoshlarning ana shunday ruhiy-axloqiy yetuklik asosida voyaga yetishi – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, barqarorligining kafolati va kelajak avlodlar uchun ishonchli istiqbol bo'lib xizmat qiladi.

“Shaxsda vatanparvarlik tuyg'usini qanday shakllantirish mumkin?” – ushbu suhbatda pedagogik-psixologik yondashuvlar asosida shaxsda vatanparvarlikni rivojlantirishning samarali usullari, oilaviy tarbiya, ta'lim tizimi va ijtimoiy muhitning o'rni haqida fikr yuritiladi. “Vatanparvar talaba-yoshlar qanday bo'lishi kerak?” – bu mavzu orqali zamonaviy talabaning ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi, Vatanga sadoqati va milliy manfaatlarini ilgari surishga bo'lgan munosabati muhokama etiladi. “Ajdodlar merosi – yuksak ma'naviyatimiz sarchashmalari” – tarixiy-madaniy yodgorliklar, buyuk allomalar va ularning asarlari misolida yoshlar ongiga milliy merosni qadrlash tushunchasi singdiriladi.

“Vatan qahramonlari va ularning jasoratlari” – tarixiy va zamonaviy qahramonlar hayoti orqali yoshlar qalbida fidoyilik, jasorat, mas'uliyat va burch tuyg'ulari shakllantiriladi.

“O'zbekistonning tashqi siyosati va uning ustuvor yo'nalishlari” – bu mavzu orqali talabalarga mamlakatimizning xalqaro maydondagi o'rni, tashqi siyosiy aloqalari, tinchlikparvarlik tamoyillari va global jarayonlardagi faol ishtiroki haqida tushunchalar beriladi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Tanlangan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan ilmiy-pedagogik faoliyat jarayonini yoritishda Vatanparvarlikni rivojlantirishda madaniyat va san'atining o'rni tobora ortib borayotgan bo'lsa-da, bu yo'nalishda hali to'liq amalga oshirilmagan tadbir va tashabbuslar mavjud. Ushbu bo'limda jamiyat va ta'lim tizimidagi mavjud talablar hamda ularga javoban ilgari surilayotgan takliflar tahlil qilinadi. Bugungi global axborot oqimi sharoitida yoshlarda vatanparvarlik hissini mustahkamlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Mavjud ta'lim tizimida madaniyat va san'at orqali vatanparvarlikni rivojlantirishga ehtiyoj ortib bormoqda. Shuningdek, yoshlarning axborot hurujlariga qarshi faol fuqarolik nuqtai nazarini va mustahkam mafkuraviy immunitetni tarbiyalash, yosh avlodda O'zbekiston Konstitutsiyasiga, davlat ramzlariga nisbatan hurmat ruhini uyg'otish, ma'naviy-ruhiy muhitni yaxshilash, yoshlarning faoliyatini, maqsadlarini o'rganish va yoshlarning ongi va dunyoqarashiga ta'sirini tahlil etish, nuqsonlarni bartaraf etishning samarali choralarini ko'rish, ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, yoshlarning fikr-mulohazalari, maqsad va intilishlarini o'rganish va ularning talab va ehtiyojlarini hisobga

olgan holda bahs va muloqotlar o'tkazish, zarur xulosalar chiqarish va tegishli takliflar kiritish ham muhim tarbiya omili sanaladi; ma'rifiy targ'ibot, bahs-munozara, ommaviy-madaniy, sport tadbirlari, ommaviy axborot vositalari orqali mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning, qabul qilinayotgan qonunlarning, qarorlar va farmonlarning mohiyatini yoshlarga ongiga singdirish va ularning kundalik faoliyat dasturiga aylantirish, o'zbek xalqining bebaho ma'naviy merosini yoshlarimiz muntazam o'rganishlari, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligiga rahna soluvchi, yoshlarning iymon-e'tiqodi va ishonchini chalgituvchi, ongini zaharlovchi, to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi har qanday g'oya va mafkuralarga qarshi murosasiz kurashchanlik muhitini yaratish va yoshlarni axborot hurujlaridan himoyalash, vaziyatni to'g'ri tahlil etishlariga yordam berish maqsadida ularni axborot materiallari bilan ta'minlab borish, xorijdan kirib kelayotgan milliy ma'naviyatimizga yot bo'lgan illatlarga qarshi yoshlarning keskin murosasiz munosabatini shakllantirish ham dolzarb muammolardan, deb ko'rsatiladi.

Ma'lumki, hozirgi globallashuv jarayonida jamiyatda yashovchi har bir yoshni yangi jamiyatda barcha imkoniyatlarini rivojlantirishni hisobga olgan holda barkamol shaxs etib tarbiyalash yo'llarini izlab topishga yo'llaydi. Chunki hozirgi o'zgarayotgan hayotda ba'zi yoshlar yangi sharoitda yashash va ishlashga, qiyin vaziyatlardan chiqib ketishga yo'l topa olmayaptilar, ba'zilarida esa yuqorida aytganimizdek, o'z iste'dodi va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda sobitlik yetishmayapti. Bugungi kunda ana shu o'zgarishlar, yangilanishlar sharoitida mustaqil holda o'ziga to'g'ri yo'l topa oladigan, barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqara oladigan barkamol talaba-yoshlarni tarbiyalashda ta'lim muassasalari jamoalari faol ish olib borishlari muhim. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya sohasida yangilanishlar zaruriyatini keltirib chiqaradi.

XULOSA

Xullas, oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va tashkiliy tadbirlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlar, xususan, talaba-yoshlar hayoti bilan bog'liq dolzarb masalalar hali to'liq hal etilmagan. Jumladan, ularning hayotda o'z o'rnini topishi, kasbiy yo'nalishini aniq belgilashi va ijtimoiy faolligini oshirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yetarli darajada yaratilmaganligi kuzatiladi. Bu holat avvalo, talabalarning tashabbuskorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning kasbiy va ijodiy qiziqishlarini rag'batlantirish o'zini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish yo'nalishida tizimli yondashuv yetishmayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida yoshlarning ijtimoiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy va psixologik jihatdan rivojlanishini ta'minlaydigan kompleks mexanizmlarni takomillashtirish zarurati ham mavjud. Demak, oliy ta'limda olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish uchun ularni nafaqat mazmun jihatdan, balki psixologik-pedagogik xamda motivatsion omillar bilan boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'l bilan talabalarda nafaqat kasbiy kompetensiyalar, balki mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik va vatanparvarlik kabi fazilatlarini shakllantirishga erishish mumkin.

Bundan ko'rinib turibdiki biz pedagoglar xamda yoshlar tarbiyasiga ma'sul bo'lgan barcha soha vakillari, davlatimiz tomonidan chiqarilgan qaror va qonunlarda ko'rsatilgan maqsad va asosiy vazifalaridan kelib chiqib, yoshlarni o'z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas'uliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishimiz zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.
2. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich “Factors and prospects for the development of student youth-military patriotic education by means of artpedagogy (through theater training)” // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed Journal Volume:10 Issue:2 February 2024 Journal DOI:10.36713/epra 2013. - B.404-406.
3. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich -“Artpedagogika vositasida (teatr sa’nat orqali) talaba yoshlarni -harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish omillari va istiqbollari” // FarDU Ilmiy xabarlar //Farg‘ona, 3/2024y. , B.372-375.
4. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - Prospects for the Development of Patriotism in Students in the Educational Process Innovative Technologika: Methodel Research journal Vol: 3, No 3, 2024. - P.1-6.
5. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - “Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish: artpedagogikaning didaktik imkoniyatlari”// Qoqon DPI Ilmiy xabarlar //Farg‘ona, 4/2024y. , B.18-26.
6. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - “Talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari” NamDU Ilmiy axborotnomasi //Namangan, 11/2024y. , B.775-778.
7. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - “Talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish texnologiyasining bosqichlari. IJODKOR OQITUVCHI JURNALI //5-dekabr.2024y.44-son, B.107-113.
8. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - “Talaba-yoshlarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish texnologiyasi” // O‘zMU xabarlar. - 2023. - 1/8/1. B.137-139.